

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI  
OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi hududiy



direktori  
M. Xakimova  
«12» dekabr 2025 y.

**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi



direktori  
L.X. Musadjanova  
«12» dekabr 2025y.

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar  
laboratoriya laboranti**

(sikl bo‘yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(288 kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**



## 1. Kirish

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, ixtisoslashtirish, o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriyalari laborantlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan. O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i hamda, O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish modulida O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish haqida” 255-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida “Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish” moduli kiritildi. Dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan bo‘lib, uning mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. Kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm–fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar dasturga kiritilgan. Dastur tibbiy ta’limning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarning ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriyalari laborantlarining mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish, ularni o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriyalari ishining mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga xosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, lavozimlik vazifalari bilan tanishtirish. Ularni kasbiy majburiyatlarni amalga oshirishda mavjud standart va protokollar asosida ishlashga o‘rgatish, bilimlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yangilash va ularni amaliyotga joriy qilish holatida tayyorlash.

## 1.2. Vazifalar:

- Umumiy ixtisoslashtirish o'quv jarayonini modulli, tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha zamonaviy, innovatsion, xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- o'ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriyalari laborantlari uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni mukammallashtirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini chuqurlashtirish;
- o'lat, vabo, sariq isitma kasalliklarining yuzaga kelishi, tarqalishi, zamonaviy tekshirish usullari borasida ma'lumotlar berish;
- aholi o'rtasida va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida tarqalishi mumkin bo'lgan karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni erta tashxislashda zamonaviy tekshirish usullarini qo'llash borasida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini yangilash;
- kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy tekshirish usullari bilan tanishtirish;
- o'ta xavfli yuqumli kasalliklar laborator tekshiruv usullarini o'tkazish vaqtida yuzaga kelgan avariya holatlarda o'rta tibbiy xodim taktikasi haqida ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;
- o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan zararlangan bemor va uning biologik materiallari bilan ishlashda maxsus himoya kiyimidan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

**1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):** O'quv dasturi malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan "Laboratoriya ishi" mutaxassisligini tugatgan hamda "Hamshiralik ishi", "Akusherlik ishi", "Davolash ishi" mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lib, "O'ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriya laboranti" lavozimida ishlash istagi bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

#### **1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- o‘rta tibbiyot xodimining huquqiy me‘yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini amalga oshirish;
- umumiy mikrobiologiya, umumiy immunologiya, infeksiya va immunitet asoslarini bilishi;
- umumiy epizootologiya, epizootologik tekshiruv usullari haqida tushunchalariga ega bo‘lishi;
- dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiyalarni, yuqumsizlantirish usullari haqida tushunchalariga ega bo‘lishi;
- o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari bilan ishlashda bakteriologik tekshiruv usullari va ularning xususiyatlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi;
- karantin infeksiyalarda zamonaviy tekshirish usullari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi;
- karantin va o‘ta xavfli infeksiyalarning oldini olish choralarini, himoya kiyimlaridan foydalanish qoidalarini bilishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo‘lishi.

#### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo‘llash, O‘zbekiston Respublikasi SSV ning 23 yanvar 2015 yildagi “Aholi o‘rtasida o‘ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risidagi” № 37-sonli buyrug‘i, № 0161- 04 “O‘zbekiston Respublikasi hududini odamlar uchun xavfli bo‘lgan karantin va boshqa yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishidan muxofaza qilish” bo‘yicha SanQvaM, shuningdek tibbiyot huquqi bo‘yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

#### **1.7. O‘qish shakli:**

- kunduzgi - o‘qish
- on/offline, masofaviy/an’anaviy - o‘qish.

**1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi:** Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo‘ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. O‘qish tugagandan so‘ng beriladigan hujjat:** o‘quv kursini to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriya laboranti” bo‘yicha 288 kredit ixtisoslashtirishdan o‘tganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

**2.1.Rejalashtirilayotgan ta‘lim natijalaridan so‘ng takomillash-tirilishi (yangilanishi) lozim bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etadi;
- hamkasblar, kichik tibbiy xodimlar bilan bo‘lgan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshiradi;
- tibbiy xatolarga yo‘l qo‘yishning oldini olish maqsadida o‘z faoliyati natijalarini har doim tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshiradi;
- tashxisot uchun qo‘llaniladigan yangi tibbiy asboblardan va texnik jihozlardan foydalanadi;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli manbalardan tibbiyotga oid ma‘lumotlarni olishi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanishi;
- to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- kasalliklarni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy tekshirish ishlarni amalga oshirishi;
- shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va birlamchi tezkor hamshiralik yordamni amalga oshirish ko‘nikmalarini yangilaydi;
- karantin guruhiga kiruvchi kasalliklar haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish, hamda ularning zamonaviy tekshirish usullarini o‘rganish;
- o‘ta xavfli infeksiyalar guruhiga kiruvchi kasalliklar haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish, yangilash hamda ularning zamonaviy tekshirish usullarini o‘rganish;
- avariya holatlar yuzaga kelganda o‘rta tibbiyot xodimlari taktikasini amalga oshirish ko‘nikmalari takomillashadi;
- karantin va o‘ta xavfli infeksiyalarning oldini olish choralari, himoya kiyimlaridan to‘g‘ri foydalanishni amalga oshiradi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi.

### 3.DASTUR MAZMUNI

#### 3.1. “Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriya laboranti”288 kredit ixtisoslashtirish kursi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	
<b>1.0</b>	<b>Kasbiy rivojlantirish modullari</b>	<b>60</b>	<b>34</b>	<b>26</b>	
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish	6	6		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul:Xorijiy til	6	2	4	
1.4	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar	6	6	-	
1.5	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4	
1.6	Modul: Infekcion nazorat	12	8	4	
1.7	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	12	6	6	
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fani modullari</b>	<b>222</b>	<b>124</b>	<b>98</b>	
2.1	Modul: Umumiy mikrobiologiya, immunologiya, infeksiya va immunitet haqida ta’limot. Zamonaviy laborator tekshirish usullari.	30	14	16	
2.2	Modul: Umumiy epidemiologiya asoslari.	12	8	4	
2.3	Modul: Umumiy epizootologiya. Epizootologik tekshirish usullari va me‘yorlari.	18	12	6	
2.4	Modul: Umumiy parazitologiya. Parazitologik tekshirish usullari.	18	10	8	
2.5	Modul: Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya. Zamonaviy yuqumsizlantirish usullari.	18	12	6	

2.6	Modul: Biologik xavfsizlik va himoya asoslari.	24	12	12	
2.7	Modul: O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchilari bilan ishlash xususiyatlari va laborator tekshirish usullari.	18	8	10	
2.8	Modul: Karantin infeksiyalar tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari.	42	22	20	
2.9	Modul: O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari.	42	26	16	
3.0	<b>Attestatsiya</b>	<b>6</b>			<b>6</b>
	<b>Jami:</b>	<b>288</b>	<b>158</b>	<b>124</b>	<b>6</b>

**“Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar laboratoriya laboranti”  
kursi o‘quv modullarining mazmuni**

**1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy hizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.“Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan

holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi

moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemilogiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.** Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

**1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.** Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka qoidalari.

Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish:

- O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam;
- Jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam;
- Kuyishda birinchi yordam;
- Elektrdan shikastlanishda birinchi yordam;

- O‘tkir zaharlanishlarda birinchi yordam;
- Bo‘g‘ilishda birinchi yordam;
- Cho‘kishda birinchi yordam;
- Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam;
- Hasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

O‘tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko‘llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o‘lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o‘pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko‘rsatish.

**2.1. Modul. Umumiy mikrobiologiya, immunologiya, infeksiya va immunitet haqida ta’limot. Zamonaviy laborator tekshirish usullari.** Umumiy mikrobiologiya fani, rivojlanish tarixi. Tibbiyot mikrobiologiyasi, mikroorganizmlar klassifikatsiyasi, ayrim mikroblarning o‘simlik va hayvonlarga bo‘lgan munosabatlari. Spiroxetalar, zamburug‘lar va bakteriyalarning morfologik xarakteristikasi. Virus va rikketsiyalarning morfologik xarakteristikasi. “Infeksiya”, “immunitet”, antigen va antitelo, immunoglobulinlar tushunchalari, immunitet reaksiyalari haqida izohlar. Antibiotiklar, bakteriofaglar haqida tushuncha. Bakteriofaglar tarixi, asosiy xususiyatlari va tabiati. Bakteriofaglarni ajratish va ularning ta’sirini faolligini aniqlash, amaliy qo‘llanishi. Ozuqa muhitlarining turlari va xususiyatlari. Mikroblarni suyuq va qattiq ozuqa muhitlarda o‘stirish. Molekular-genetik va immunoferment laborator tekshiruv usullari (PZR, IFA). Agglyutinatsiya reaksiyalari (Rayt, Vidal), presipitatsiya, lizis reaksiyalari, RNGA. Biologik materiallardan namuna tayyorlash va tekshirish. Laboratoriyaga va himoya kiyimlarga bo‘lgan talablar, xonalarni tozalash va zararsizlantirish. Tashqi va ichki nazorat, ularni o‘tkazish tartibi.

**2.2. Modul: Umumiy epidemiologiya asoslari.** Umumiy epidemiologiya fani, maqsadi va vazifalari. Infeksiya manbai, yuqish yo‘llari va mexanizmlari. Organizmni kasallikka moyilligi. Tabiiy o‘choqlar va tabiiy-o‘choqli infeksiyalar. Sotsial omillarning ahamiyati va ularni umumiy baholash. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda asosiy profilaktika choralari. Epidemiologik zanjirdagi kasallik manbai va yuqish yo‘llariga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlar. Epidemiologik jarayon, kasalliklarning turli davrlari va shakllarining epidemiologik ahamiyati. Tashqi muhitning infeksiyalar yuqishidagi ahamiyati. Epidemiologik baholash, epidemiologik nazoratni o‘tkazish. Sotsial profilaktik, kasallik manbaiga qarshi qaratilgan, yuqish yo‘llarini uzish, uchun qaratilgan chora-tadbirlar. Aholi immunitetini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

**2.3. Modul: Umumiy epizootologiya. Epizootologik tekshirish usullari va me’yorlari.** Epizootologiya fani, rivojlanish tarixi, maqsad va vazifalari. Olimlarining epizootologiya rivojlanishiga qo‘shgan hissasi. Epizootologiyani boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Epizootologiyaning hozirgi davr

chorvachiligini rivojlanishidagi vazifalari. Hayvonlarni yuqumli kasalliklardan himoya qilish. Epizootologik tekshirish usullari va me'yorlari.

**2.4. Modul: Umumiy parazitologiya. Parazitologik tekshirish usullari.** Umumiy parazitologiya haqida ta'limot. Parazitologiya fanining maqsad va vazifalari. Parazitologiyaning epizootologiya, epidemiologiya, immunologiya fanlari bilan bog'liqligi Parazitlarning turlari. Parazitlarning tuzilishi, biologik, morfologik xususiyatlari, yashash davomiyligi, rivojlanish sikllari, yuqish mexanizmlari, epizootologik va epidemiologik ahamiyati. Ektoparazitlarni hayvonlardan va ularning uyalaridan parazitlarni yig'ish, turini aniqlash va ularni tirik saqlash usullari. Ektoparazitlarni laboratoriyaga yetkazish tartib-qoidalari.

**2.5. Modul: Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya. Zamonaviy yuqumsizlantirish usullari.** Dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya. Ularning turlari, usullari. O'tkazish texnikasi, ekpozitsiyasi, samaradorlik ko'rsatkichlari. Zamonaviy dezinfeksiya usullari, o'tkazish tartibi. Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va xisob-kitobi. Ekspozitsiya vaqti jadvali. Avtoklav bilan ishlash va texnika havfsizligi qoidalari. Zamonaviy dezinseksion moddalar va ularni qo'llash usullari. Kemiruvchilarni zaharlashda qo'llaniladigan moddalarning xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari. Zamonaviy yuqumsizlantirishda ishlatiladigan apparatlarning ishlash tartibi. Turlari, ishlash texnikasi va havfsizligi qoidalari. Yuqumsizlantirish samaradorligini kimyoviy va bakteriologik tekshirish nazorati.

**2.6. Modul. Biologik xavfsizlik va himoya asoslari.** Biologik xavfsizlik haqida ma'lumotlar. Xavfsizlik guruhlarini. I-II xavfsizlik guruhiga mansub patogen biologik agentlar. Ular bilan ish olib borishda biologik xavfsizlik qoidalari. Bioshkaflar haqida tushuncha. ShHV (shaxsiy himoya vositalari) tiplari va qo'llash qoidalari. ShHV ni kiyish va echish algoritmi. Ularni zararsizlantirish qoidalari. Olingan biologik materiallarni qayd qilish, saqlash, transport vositalari bilan yetkazish va laboratoriyada tekshiruviga topshirishga bo'lgan talablar. Avariya holatlarida harakatlar ketma-ketligi. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari bilan ishlashda himoyalash nazoratini tashkil qilish.

**2.7. Modul. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari bilan ishlash xususiyatlari va laborator tekshirish usullari.** O'ta xavfli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari, ular bilan ishlash xususiyatlari. Laborator texnika asoslari. Mikroskop tuzilishi, mikroskop bilan ishlash. Laborator idishlar, bo'yoqlar, ozuqa muhitlar, steril qum, zararli materialni pipetirlash. Qon olish texnikasi. Bakterioskopik usul (surtma tayyorlash, mikroskopda ko'rish), bakteriologik usul (ozuqa muhitlarga ekish, suspenziyalar tayyorlash), biologik usul (biosinamalar qo'yish, yorish), serologik reaksiyalar. Avtoklav bilan ishlash qoidalari. Buyum oynachalarini, probirkalarni, pipetkalarini yuvish qoidalari, laborator idishlarni va materiallarni sterilizatsiyaga tayyorlash.

**2.8. Modul. Karantin infeksiyalar tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari.** Karantin infeksiyalar haqida tushuncha. Ularning tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari va ularning xususiyatlari. O'lat mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, laborator diagnostikasi,

differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. O'latning klinik shakllariga ko'ra laborator tekshiruvlari uchun material olishxususiyatlari. Vabo mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, laborator diagnostikasi, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Sariq isitma mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, laborator diagnostikasi, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat.

**2.9. Modul. O'ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari.** O'ta xavfli infeksiyalar. O'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumot. O'zbekiston Respublikasi SSV 23 yanvar ning 2015 yil " Respublikada aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish" to'g'risidagi 37 sonli buyrug'ining mohiyati. Kuydirgi mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, laborator tekshirish usullari. Klinik shakllariga ko'ra bemordan olingan tekshirish materiallari bilan ishlash, differensial diagnostikasi, davolash, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Kuydirgida bakterioskopik, bakteriologik, serologik va biologik tekshiruvlar o'tkazish. Quturish mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Brusellyoz mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Brusellyoz kasalligida zamonaviy laborator tekshiruvlarin o'tkazish. Gemorragik isitmalar mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, laborator tekshirish usullari, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Oqsim kasalligi mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, epizootologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, differensial diagnostikasi, davolash, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Bezgak kasalligi mikrobiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, patologik anatomiyasi, differensial diagnostikasi, profilaktik chora-tadbirlar, epidemiologik nazorat. Kasalliklar tashxisotida zamonaviy tekshirish usullari va ularning xususiyatlari. Tekshiruv uchun material olish va uni laboratoriyaga yetkazish.

#### **4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

#### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminardarslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening-o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar. Mulyajlar. Videofilmlar.

### **4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari:

- SanQvaM № 0161- 04 "O'zbekiston Respublikasi xududini odamlar uchun xavfli bo'lgan karantin va boshqa yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishidan muxofaza qilish"
- O'zbekiston Respublikasi SSV ning 23 yanvar 2015 yil "Respublikada aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish" to'g'risidagi 37 sonli buyrug'i.
- O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.

#### **4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

##### **Asosiy adabiyotlar:**

1.Obloqulov A.R., To'xtaev A.A., Narziev I.I.: «Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar muammolari». Toshkent 2002.

2.H.B.Saparov: "O'ta xavfli yuqumli kasalliklar". Toshkent- 2014.

3. "Karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bo'yicha qo'llanma" H.B.Saparov, A.H.Hasenov: Toshkent- 2010.

4. G.U.Qobilov: Umumiy mikrobiologiya. Toshkent 2008.

5.D.S.Vaxidova: "Epizootologiya va mikrobiologiya". O'quv qo'llanma 2006.

6.S.A.Dadaev. G. Abduraxmanova: Umumiy parazitologiya. Toshkent 2013.

7.E.I.Musaboev, A.Q.Bayjanov: «Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya». Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti 2006 yil.

8.Majidov V.M.: «Yuqumli kasalliklar». Toshkent. 2001.

9."Международные медико-санитарные правила (2005) второе издание ВОЗ

10."Ebola isitmasi". H.B.Saparov, B.O'.Rovshanov. Toshkent -2014.

#### **4.3.3. Elektron ta'lim resurslari**

O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

Medpoisk<http://www.medpoisk.ru/>

Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>

Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>

## **5.YaKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar**

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.